



ERKIN VOHIDOV LIRIKASIDA USLUB MASALASI HAMDA EPIK TASVIR QIRRALARI

Mardiyev Rustam Raxmatovich

*Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod
maktabi ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi*

Oxbo'tayeva Muqaddas

*Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod
maktabi o'quvchisi*

Badiiy uslub ijodkorning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlar, belgilar va ifoda jihatlaridan iborat bo'lib, u adabiy tur va janrlarda yuzaga chiqadi. Badiiy asar yaratilishidan tortib to yuzaga chiqqungacha bo'lgan jarayonda ham shakl, ham mazmun jihatdan, qolaversa, har ikkalasining komponentlari orqali yuzaga chiqadi. Poetik uslub ijodkor shaxsiyatida, shoirning narsa va hodisalarga munosabatida hamda asarlarning ifoda tarzida aks etadi. G'oyaning izchilligi, mavzuning dolzarbligi, sujet va kompozitsiyasidagi o'zaro uyg'unlik, badiiy san'atlar va tasviriy vositalardan foydalanish kabilarda ijodkor uslubi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Qolaversa, adabiy asarning qadr-qimmatini belgilashda bir qancha talablar qo'yiladi. Bu haqda L. N. Tolstoy shunday deydi: "Agar biz yangi muallif asarini o'qimoqchi bo'lsak, mohiyatan hamma vaqt dastlab shunday bir savol tug'iladi: "Qani, sen qanaqa odam ekansan? Men biladigan odamlardan farqing nimada va bizning hayotimizga qay xilda qarash kerakligini aytmoqchi bo'lyapsan; o'zing uni boshqacha ko'ra olasanmi? Bu gal nima yangilik bera olasan, menga hayotni yana qaysi tomonidan yoritib ko'rsatmoqchisan?.." ¹. demak., muallif o'z aytmoqchi bo'lgan fikrini, avvalo,

¹ Tolstoy L.N. Poln.sobr.soch. T.:30, M., 1949, 19-bet.



o'zgarishlar eshita, tushuna oladimi yoki yo'qmi? Mana shu savolga oydinlik kiritib olishi kerak. Ijod jarayoni oson kechmaydi. Yozuvchi va shoirlar ijod jarayonida o'zini, o'zligini topadi, o'z uslubiga ega bo'ladi. Buning uchun ma'lum bir talablar qo'yiladi: ijodkorning kattami-kichikmi o'z ovozi, o'z so'zi bo'lishi lozim. Barchaga birdek manzur bo'la oladigan iste'dodi, turmush tajribasi va eng keraklisi, o'z pozitsiyasi, ya'ni konsepsiyasi bo'lishi lozim.

Chinakam ijodkor bir necha marotaba murojaat qilingan bo'lsa-da, lekin uning yangi uqtasini topib, kitobxonga estetik zavq bera oladigan asar yarata oladi.

“Biz bir asarni yomon, ikkinchisini yaxshi, uchinchisini so'z san'atining mo'jizasi deymiz. Shunda hammadan burun nimani ko'zda tutamiz? Avval shu savolga javob berish kerak. Modomiki, kitob keng o'quvchilar ommasi uchun yozilar ekan, bu savolga o'sha omma nuqtayi nazaridan qarab javob berish zarur. Omma o'zini maftun qiladigan, rohat bag'ishlaydigan narsani o'qiydi. O'shani yaxshi asar deb biladi. O'quvchi kitobni “madaniyatdan orqada qolmaslik” uchungina emas, zo'r rohatdan mahrum bo'lmaslik uchun o'qisa hisob. Shunday asar yaxshi asar bo'ladi. Asar to'g'risida eng to'g'ri xolis yozilgan taqriz kutubxonaning daftarida bo'ldi”.² Darhaqiqat, eng yaxshi asar o'z kitobxonini topgan asardir.

“Yozuvchi biror narsa yozish uchun qo'lga qalam olganda hammadan burun ko'z oldiga shu narsani o'qiyotgan o'quvchisini keltirsin, asarning har bir satri ko'z oldidan o'tganida chehrasida bo'ladigan o'zgarishini ko'rib tursin. Yozuvchi o'zini kattakon bilimdon, yuksak zavq egasi bo'lgan kishi oldida imtihon berayotganday sezsin”.³ Adabiyotshunoslik ilmidagi uslub yoki uslubiy o'ziga xoslik tushunchalari ijodkorning ana shu niyatlari mahsuli natijasida

² Abdulla Qahhor. Asarlar: 5 jildlik/ J5. Haq so'zning kuchi: Maqolalar. Suhbatlar. Qaydlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. 64-bet.

³ Abdulla Qahhor. Asarlar: 5 jildlik/ J5. Haq so'zning kuchi: Maqolalar. Suhbatlar. Qaydlar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. 65-bet.



yuzaga keladigan jarayondir. Adabiyotshunos K. Simonov har bir ijodkorning o'zi alohida bir uslub ekanligini aytadi. Darhaqiqat, hech bir ijodkor bir-birini takrorlamaydi. Birida keltirilgan g'oya, fikrlar hattoki voqealar rivoji, qahramonlar ham boshqa ijodkorning asarida takrorlanmaydi.

Birinchi bosqich. Bu bosqichda ijodkor endi adabiyot bo'stoniga qadam qo'ygan bo'ladi. Ijodining asosi takrordan iborat bo'ladi. Jamiyat va tabiatni har qancha sinchiklab kuzatsa ham, o'rgansa ham, mustaqil ijod qilish jarayoniga yetib bromagan bo'ladi.

Ikkinchi bosqich. Endi ijodkor tabiatga ergashmaydi. O'zining dunyoqarashi, prinsiplari bilan ish ko'radi. Tabiat qonunlarini inkor eta boshlaydi. O'z manera – uslubi hukmronligida qalam tebratishni afzal biladi.

Uchinchi bosqich. Chinakam san'at asarlari yaratiladigan bosqich. Bu bosqichda yozuvchi o'z uslubi, o'z yo'nalishiga ega bo'ladi. Badiiy asarida shakl va mamzun birligiga e'tibor qaratadi. Uslub, avvalo, insonning idrokida, eng ostki qatlamlarida yuzaga keladi. Darhaqiqat, kitobxonni o'qishligi bilan o'ziga tortolgan har qanday mukammal asarning ijodkori o'z manerasiga ega bo'ladi.

Erkin Vohidov ham ana shunday o'z so'ziga, ovozig, uslubiga ega bo'lgan ijodkordir. Shoirning lirik va liro-epik janrdagi asarlarining barchasida sofdillik, samimiylik, tasavvur dunyosining boyligi sezilib turadi. Erkin Vohidovning "Oqshom" she'rini tahlil qilar ekanmiz, bunga yana bir bora amin bo'lamiz. Shoir chiroyli bir kecha haqida gapirar ekan, Bobur Mirzoning ko'ngli farah – shodlik, baxtiyorlik istagandek oqshomligini eslatib, talmeh san'atidan mahorat bilan foydalandi:

Oqshom,

Bobur tilagan farah,

Boda kayfi, do'stlar suhbatl.





Qo'llarimda limmo-lim qadah,

Menga keldi alyor navbati.

Xuddi shunga o'xshash misralar Bobur Mirzo g'azaliyotida ham uchraydi. Adabiyot ilmining nuktadoni sifatida Erkin Vohidov Bobur g'azalidan ijodiy foydalangan:

Yoz fasli, yor vasli, do'stlam ing suhbatl,

She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.

Yoz faslida chog'ir ichmakning o'zga holi bor,

Kinga bu nash'a muyassar bo'lsa, bordur davlati.

Keyingi misralarda shoirga qadah so'zi aytish vazifasini topshiriladi. Tabiiyki, hamma shoirdan she'r kutyapti. Shunda ijodkor davradagilar qarata kechinmalarini misralarga aylantiradi:

Qahramonim,

O'ltiribsan sen

Ro'paramda kamtarin, dono.

O'z ishingni do'ndiribsan sen,

Do'ppini dol qo'ndiribsan sen,

Tuproqda zar undiribsan sen,

Zarga elni to'ldiribsan sen,

To'yib, yurtni to'ydiribsan sen,

Har narsang but, kaming yo'q aslo,

Faqat senga she'r kerak a'lo.



Erkin Vohidovning boshqa ijodkorlardan ajralib turadigan jihati – uning o‘zbek millatining chinakam tanti xalqini butun umr kuylab o‘tganidir. Shoir uchun xalning o‘tmishi, kelajagi, uning qadriyatlari, an‘ana va udumlari, umuman olganda, bor bo‘yicha barchasi qadrli va azizdir. Bu jihatlar Erkin Vohidovning she‘rlari zamiriga singib ketgan. Do‘ppini dol qilib kiyish orqali arab tilidagi د (dol) harfining shakily tuzilishiga muqoyasa qilmoqda. E’tibor bersak, mehnatkash, zahmatkash xalqimiz vakillari ko‘p holatda do‘ppini mana shunday holatda kiyishadi. Bu ham shoirning badiiy topilmasidir.

Shoir she‘rga tashna elga ta’rif beradi. Yelkasidagi shuncha mehnat zalvaridan ortib, ijod ahlining mehrini, his qilishga intiladigan elga tasannolar aytadi. Ular oldida o‘zini chinakam ijodkorlikka noloyiq deb hisoblaydi. Elining ko‘nglini olish uchun bog‘da olma, nok o‘sadi yoki tog‘da oppoq qor bor, degan jumlar bilan xayolini chalkashtirishni istamasligini yozadi. Bu elga Bedil va

Erkin Vohidov ijodida dostonlarning salmoqli o‘rin tutishi bejiz emas. Shoir lirikasida epik tasvir qirralari uning dostonlaridan tashqari voqeaband she‘rlarida, shuningdek, she‘riy yo‘lda yozilgan hikoyatlarda ko‘rinadi. Bunday xarakterdagi asarlar shoirga doston yozish uchun o‘ziga xos ijodiy tajriba rolini o‘ynaydi.